



## "O'ZBEKISTONDA MUSIQA MADANIYATINING RIVOJLANISH VA TARAQQIYOTI"

### "РАЗВИТИЕ И ПРОГРЕСС МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ"

### "THE DEVELOPMENT AND PROGRESS OF MUSICAL CULTURE IN UZBEKISTAN"

**Qurbanaliyeva Sohibaxon Xolmuhammad qizi**

*Farg'onan davlat universiteti 2-bosqich magistranti.*

*abdullahayevabashoratxon31@gmail.com (+998942727558)*

*ORCID ID 0009-0004-8911-1467*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekistonda musiqa madaniyatining tarixiy ildizlari, uning rivojlanish bosqichlari va hozirgi kundagi holati yoritilgan. Shuningdek, xalq musiqasi, maqom san'ati, milliy cholq'u asboblari va ularning jamiyatdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston, musiqa madaniyati, maqom, xalq musiqasi, tarixiy taraqqiyot, milliy cholq 'ular.*

**Аннотация:** В статье рассматриваются исторические корни музыкальной культуры Узбекистана, этапы её развития и современное состояние. Особое внимание уделено народной музыке, искусству макама и роли национальных музыкальных инструментов в обществе.

**Ключевые слова:** Узбекистан, музыкальная культура, макам, народная музыка, историческое развитие, национальные инструменты.

**Annotation:** *This article explores the historical roots of Uzbekistan's musical culture, its stages of development, and current state. It highlights folk music, the art of maqom, and the role of national musical instruments in society.*

**Keywords:** *Uzbekistan, musical culture, maqom, folk music, historical development, national instruments.*

**Krish:** Musiqa har doim insoniyat sivilizatsiyalarining dolzarb va ahamiyatli jihat bo'lib, jamiyatga hissiy, axloqiy va madaniy ta'sir ko'rsatish kuchiga ega. Bu





borada mamlakatimiz mustaqillikga erishganimizdan so'ng ko'plab ilmiy yondashuvlar bo'ldi. Ya'ni O'zbekistonning birinchi prezidenti sifatida Islom Abdug'aniyevich Karimov mamlakatda san'at va madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning san'at madaniyat va musiqa san'ati haqidagi fikrlarining asl mohiyati milliy qadriyatlarni saqlash va yosh avlodni madaniy meros ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi. Islom Karimovning bu boradagi asosiy g'oya quyidagicha bo'lgandi ya'ni biz eng avallo milliy madaniyatni asrash uchun harakat qilishimiz zarurdir. Birinchi prezidentimiz madaniyat va san'atni milliy g'urur va o'zlikni shakllantiruvchi muhim omil deb hisoblagan va milliy musiqa, raqs hamda qo'shiqchilik san'atining qadimiy an'analarini asrash va rivojlantirish kerak ekanligini doimo ta'kidlagan.

"O'zbek xalqining musiqasi va san'ati - bu xalqning ruhi, uning tarixi va bugungi kunini aks ettiruvchi buyuk bir xazina."

Yosh avlodni tarbiyalashda musiqaning ahamyati to'g'risida u shunday fikr yuritgan edilar: Ya'ni musiqa va san'atni yosh avlodni ma'naviy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida asosiy vositalardan biridir. Islom Karimovning fikricha, musiqa va san'at yoshlarga estetik tarbiya berishda, ularda vatanparvarlik va insonparvarlik hissini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Qolaversa madaniy integratsiya va xalqaro yutuqlarlarga erishishda milliy madaniyatni dunyo miqyosida tanitish va xalqaro madaniy muloqotni kuchaytirishni muhim deb bilgan. Shu maqsadda O'zbekistonda xalqaro san'at festivallari, masalan, "Sharq taronalari" kabi tadbirlar tashkil etilgan. Bundan tashqari musiqa va san'atni qo'llab-quvvatlashga doir ko'plab chora tadbirlar xususan, mamlakatda san'at va madaniyatni rivojlantirish uchun davlat tomonidan keng ko'lamli yordam ko'rsatilishini ta'minlagan. Musiqa maktablari, san'at muassasalari va teatr larning faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ijodkorlar uchun sharoit yaratgan. Madaniy merosni e'zozlash borasidagi qarashlar to'g'risida : Islom Karimov o'z nutqlarida madaniy merosni saqlash va uni xalqaro jamoatchilikka tanitish borasida ko'p marotaba suhabatlar olib borgan. Shuningdek, u madaniyatni gerb, bayroq va madhiya kabi mustaqil davlatning asosiy ramzlaridan biri deb hisoblagan. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning madaniyat va san'at haqidagi fikrlari bugungi kunga kelib ham Mamlakatimizda musiqa va san'at sohalarining rivojlanishi uchun yo'l xaritasi sifatida xizmat qilib kelmoqda bo'lsa, bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida musiqa va san'atni jamiyatning





ma'naviy va madaniy rivojlanishining muhim omili deb hisoblab, ushbu sohalarga katta e'tibor qaratayotgani hamda milliy san'atni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar va qarorlarni amalgalash oshirayotgani alohida e'tiborga olishimiz joizdir. Mirziyoyevning musiqa va san'at haqidagi asosiy fikrlari quyidagichadir.

San'atning jamiyatda tutgan o'rni: Shavkat Mirziyoyevning fikricha, musiqa va san'at inson qalbini boyitadi, jamiyatni birlashtiradi va yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. U san'atni insoniyat ma'naviyatining asosi deb ta'riflaydi demak "San'at insonning ruhiy olamini boyitib, uni ma'naviy jihatdan yuksaltiradi. Biz milliy san'atimizni rivojlanterib, yoshlarimizni badiiy didli, ma'naviy boy shaxslar qilib tarbiyalashimiz kerak."

Madaniyat va san'atni rivojlanirish dasturlari

Ilk prezidentlik yillardan to hozirgacha bo'lgan davrida Mirziyoyev san'at va madaniyatni rivojlanirish uchun bir qator dasturlarni amalgalash oshirdi:

1. "Madaniyat va san'atni rivojlanirish jamg'armasi"ni tashkil ettirdi. Bu jamg'armaning vazifasi nimadan iborat? Ushbu jamg'arma orqali milliy madaniyatni qo'llab-quvvatlash va san'atkorlarga ko'mak berishni yo'lga qo'yoish mumkin va bu orqali esa ko'plab yosh ijodkorlarning rivojlanishiga zamin yaratish mumkin.

2. Madaniyat va san'at sohasidagi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat grantlari va stipendiyalari joriy etildi.

3. Milliy va xalqaro miqyosda san'atni targ'ib qilishni yo'lga qo'yish.

Mirziyoyevning tashabbusi bilan milliy madaniyatni xalqaro maydonda targ'ib qilish yanada kuchaytirildi. Jumladan: "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali ko'lalimi kengaytirish orqali dunyo xalqlarining musiqa madaniyati bilan muloqot qilish imkoniyati yaratildi.

O'zbekistonning xalqaro san'at festivallari va ko'rgazmalarida ishtiroki kuchaytiroki ya'nada ortdi.

4. Milliy merosni asrash va rivojlanirishdagi harakatlar.

Shavkat Mirziyoyevning asosiy g'oyalaridan biri bu milliy musiqa san'ati, qo'shiqchilik, teatr va raqs san'atini saqlash va rivojlanirishga alohida e'tibor qaratishdan tashkil topgan. Aniqroq qilib aytadigan bo'

Isak yurtboshimiz milliy merosni avaylab asrash va uni yangi avlodlarga yetkazib berishni davlatning ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblaydilar. "Milliy





madaniyatimiz va san'atimizni yangi avlodga yetkazish, uning qiymatini anglatish bizning burchimizdir."

5. San'atkorlar va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida Shavkat Mirziyayev san'atkorlar va madaniyat arboblarining jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish to'g'risida bir qator qarorlar qabul qilgan. San'atkorlar va ijodkorlarning ijodiy erkinligini ta'minlash, ularning asarlarini ommaga keng yetkazish uchun yangi imkoniyatlar yaratish nazarda tutilgan.

6. San'atga zamonaviy tarzda yondashish: Yurtboshimiz madaniyat va san'atni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat qaratmoqda. Jumladan: Musiqa va san'at sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Madaniyat muassasalarini raqamlashtirish va ularni jahon standartlariga moslashtirish. Shunday qilib, Shavkat Mirziyoyevning musiqa va san'atga bo'lган e'tibori milliy madaniyatni rivojlantirish bilan birga, uni global maydonga olib chiqish va yosh avlodning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa O'zbekistonni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham jahon sahnasida munosib o'ringa ega bo'lishiga xizmat qiladi. Bir madaniyat vakillari bir-birlari bilan musiqa almashganda, ular boshqa turmush tarzi haqida qimmatli tushunchaga ega bo'ladilar. Musiqa va ijtimoiy aloqalar qanday bog'liqligini o'rganishadi va ayniqsa, boshqa aloqa liniyalari qiyin bo'lган ziddiyatli paytlarda ham juda muhim qarorlarni pazitiv tarzda qabul qilisjhga yordam beradi. Shuning uchun Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan so'ngi yillarda musiqa, San'at va madaniyatni takomillashtirish borasida ko'plab qarorlarni qabul qildi. Jumladan yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, kasb hunarga yo'naltirish, jamoaviy birlashishlarini taminlash va vatanparvarlik ruhida ulg'ayishlari uchun ularni musiqa, san'at, madaniyat va sport sohalariga yo'naltirish chora tadbirleri butun mamlakat miqiyosida olib borilmoqda. Bu borada Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Har bir o'g'il-qiz hech bo'lmasa bitta cholg'u asbobini chalishni bilishini istardim", degan jumlalari muhim ahamiyat kasbetadi. Shu asnoda Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzolagan edi. Unga ko'ra, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning madaniy bilim va ko'nikmalarini, milliy madaniyatga muhabbatini oshirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'rib chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Xususan, maktab





o‘quvchilariga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjati (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi. Musiqa fani o‘qituvchilarining milliy cholg‘ulardan kamida bittasini, 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo‘lish majburiy hisoblanadi.

Maqolada O‘zbekistonda musiqa madaniyatining rivojlanish bosqichlari, uning milliy va xalq san’ati bilan bog‘liqligi, shuningdek, yosh avlodni ma’naviy va badiiy jihatdan tarbiyalashdagi ahamiyati batafsil tahlil qilindi. O‘zbek musiqa madaniyati tarixiy jihatdan boy bo‘lib, uning rivojlanishi davomida xalq musiqasi, maqom san’ati va milliy cholg‘u asboblari katta ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy jamiyatda musiqa san’ati o‘zining estetik va ma’naviy salohiyatini saqlab qolishda davom etmoqda. Yoshlarni badiiy didli va ma’naviy boy shaxslar qilib tarbiyalashda musiqa madaniyatining o‘rni beqiyosdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Tadjibaeva D. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 215 b.
3. Shavkat Mirziyoyev. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: 2017.
4. "Milliy madaniyat va san'at: Bizning vazifamiz". – Toshkent: 2020.
5. <https://uzmfa.uz> (2025-yil 1-mayda murojaat qilingan).

